



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№8(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
24-avgust, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari .....                    | 10 |
| <i>Sultonov Xaytboy Eraliyevich</i>                                                                                                                                |    |
| Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....                                              | 14 |
| <i>Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi</i>                                                                                                                         |    |
| Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....                                                           | 19 |
| <i>Tengelbayeva Dinora Muratovna</i>                                                                                                                               |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....                                                | 25 |
| <i>Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna</i>                                                                                                                          |    |
| Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....                       | 30 |
| <i>Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li</i>                                                                                                                       |    |
| Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi..... | 34 |
| <i>K. B. Numanov</i>                                                                                                                                               |    |
| Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari .....                                              | 38 |
| <i>Ismailov Abduvali Abdumalikovich</i>                                                                                                                            |    |
| CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi .....                        | 45 |
| <i>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</i>                                                                                                                             |    |
| Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili .....                                                                             | 48 |
| <i>Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi</i>                                                                                                                         |    |
| Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari .....                                          | 52 |
| <i>Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi</i>                                                                                                                             |    |
| Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi .....                          | 59 |
| <i>Otabayeva Muazzam Abdumajidovna</i>                                                                                                                             |    |
| Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                          | 63 |
| <i>Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna</i>                                                                                                                             |    |
| Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari .....                                     | 69 |
| <i>Sharipov Hayotjon Safarovich</i>                                                                                                                                |    |
| "Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish .....                                            | 75 |
| <i>Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi</i>                                                                                                                       |    |
| "Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish .....                                                                                | 79 |
| <i>Baratova Madinaxon Paxridinovna</i>                                                                                                                             |    |
| "Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish .....                                  | 83 |
| <i>Jumayeva Farzona Behzodjon qizi</i>                                                                                                                             |    |
| Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari .....                                                                                    | 87 |
| <i>Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna</i>                                                                                                                             |    |



# KASABA UYUSHMALARI XODIMLARIDA TASHABBUSKORLIK VA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Sharipov Hayotjon Safarovich

International School of Finance, Technology and Science instituti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tizimli tahlil qilingan. Klassik faoliyat psixologiyasi (S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontev, B. G. Anan'ev, K. K. Platonov, V. D. Shadrikov), dispozitsion-xarakterologik yondashuv, xorijiy motivatsion-kognitiv konsepsiyalar (M. Frese, D. Fay, J. B. Rotter, D. C. McClelland, E. A. Locke, A. Bandura, A. M. Grant) hamda MDH va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, tashabbuskorlik va yetakchilikning o'zaro bog'liq, biroq mazmunan farqlanuvchi ijtimoiy-psixologik fenomenlar ekanligi asoslangan. I. A. Krupnovning tizimli-funksional modeli asosida tashabbuskorlikning sakkiz komponentli tuzilmasi kasaba uyushmasi xodimi faoliyati kontekstida operatsionallashtirilgan. Muallif tomonidan kasaba uyushmalari xodimlarining o'ziga xos kasbiy faoliyati - jamoa manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy sheriklikni ta'minlash va mehnat huquqlarini himoya qilish - ushbu kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilikni alohida tadqiq etishni taqozo etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda "konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik" uch a'zoli nazariy modeli taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbuskorlik, yetakchilik, ijtimoiy psixologiya, kasaba uyushmalari, konformlik, proaktiv xulq-atvor, shaxs faolligi, tizimli-funksional yondashuv, nazariy-metodologik tahlil.

**Abstract:** The article provides a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations for studying initiative and leadership qualities among trade union employees. A comparative analysis is conducted of classical activity psychology (S. L. Rubinstein, A. N. Leontiev, B. G. Ananiev, K. K. Platonov, V. D. Shadrikov), the dispositional-characterological approach, foreign motivational-cognitive concepts (M. Frese, D. Fay, J. B. Rotter, D. C. McClelland, E. A. Locke, A. Bandura, A. M. Grant), and the views of CIS and Uzbek researchers. It is substantiated that initiative and leadership are interrelated yet substantively distinct socio-psychological phenomena. Drawing on I. A. Krupnov's systemic-functional model, the eight-component structure of initiative is operationalised for the activity of a trade union employee. The author substantiates that the specific professional activity of trade union employees - representing collective interests, ensuring social partnership, and protecting labour rights - necessitates a separate study of initiative and leadership within this professional group, and proposes a three-part theoretical model of "conformity - initiative - leadership".

**Key words:** initiative, leadership, social psychology, trade union organizations, conformity, proactive behavior, personal activity, systemic-functional approach, theoretical-methodological analysis.

**Аннотация:** В статье системно проанализированы теоретико-методологические основы изучения инициативности и лидерских качеств у работников профсоюзных организаций. Проведён сравнительный анализ классической психологии деятельности (С. Л. Рубинштейн, А. Н. Леонтьев, Б. Г. Ананьев, К. К. Платонов, В. Д. Шадриков), диспозиционно-характерологического подхода, зарубежных мотивационно-когнитивных концепций (М. Фрезе, Д. Фэй, Дж. Роттер, Д. Макклелланд, Э. Локк, А. Бандура, А. Грант), а также взглядов исследователей стран СНГ и Узбекистана. Обосновано, что инициативность и лидерство являются взаимосвязанными, но содержательно различными социально-психологическими феноменами. На основе системно-функциональной модели И. А. Крупнова восьмикомпонентная структура инициативности операционализирована применительно к деятельности профсоюзного работника. Автором научно обосновано, что специфика профессиональной деятельности работников профсоюзных организаций требует отдельного изучения инициативности и лидерства в данной профессиональной группе, и предложена трёхчленная теоретическая модель "конформность - инициативность - лидерство".

**Ключевые слова:** инициативность, лидерство, социальная психология, профсоюзные организации, конформность, проактивное поведение, активность личности, системно-функциональный подход, теоретико-методологический анализ.

## KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat bozorining tarkibiy yangilanishi, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi va boshqaruv tizimlarining modernizatsiyasi sharoitida xodimlarning tashabbuskorlik va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta'minlovchi ustuvor ijtimoiy-psixologik omillardan biriga aylanmoqda. Mehnat munosabatlarining murakkablashuvi, bandlik shakllarining xilma-xillashuvi hamda ijtimoiy himoya tizimiga qo'yilayotgan talablarning ortishi mehnat jamoalarida vositachilik va vakillik funksiyasini bajaruvchi institutlar zimmasiga yangi vazifalarni yuklamogda.

Kasaba uyushmalari - xodimlar, ish beruvchilar va davlat o'rtasidagi manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi, ijtimoiy sheriklikni ta'minlovchi va mehnat huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik jamiyati instituti sifatida - o'ziga xos kasbiy vazifalarni bajaradi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ilgari surilgan munosib mehnat konsepsiyasida barcha ayollar va erkaklar uchun erkinlik, tenglik, xavfsizlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish sharoitida to'laqonli bandlikni ta'minlash strategik ustuvorlik sifatida belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari xodimlarining kasbiy kompetentligi va shaxsiy faolligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarining namoyon bo'lishini alohida ilmiy qiziqish predmeti sifatida belgilaydi.

Yangi O'zbekistonda kasaba uyushmalari tizimini takomillashtirish, xodimlarning mehnat huquq va manfaatlarni himoya qilish hamda ularning kasbiy faolligi va boshqaruv salohiyatini oshirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda O'RQ-588-son<sup>1</sup> "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan mazkur institutning tashkiliy-huquqiy maqomi va vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida hamda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar kasaba uyushmalari xodimlaridan yangi sifat darajasidagi tashabbuskorlik va yetakchilik ko'nikmalarini talab etadi. Bu esa mazkur sifatlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur va tizimli tahlil qilishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tashabbuskorlik va yetakchilik fenomenlariga oid klassik, xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning metodologik uzviyligini aniqlash hamda kasaba uyushmalari xodimlari kontekstida ushbu muammoning o'rganilganlik darajasini belgilash va empirik tadqiqot uchun nazariy modelni asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Faoliyat nazariyasi nuqtayi nazaridan tashabbuskorlik shaxsning faoliyat subyekti sifatidagi faolligi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi: subyekt tashqi sharoitlarga passiv moslashuvchi emas, balki ularni o'zgartiruvchi, o'z faoliyatini ongli ravishda maqsadga yo'naltiruvchi ijtimoiy-psixologik agent sifatida namoyon bo'ladi.

S. L. Rubinshteyn tomonidan asoslangan "tashqi ta'sirlar ichki shartlar orqali sinadi" tamoyili tashabbuskorlikni tashqi rag'batlantirishning bevosita natijasi emas, balki shaxsning ichki motivatsion tuzilmasi vositasida qayta ishlangan faollik shakli sifatida tushunish imkonini beradi.

A. N. Leontevning faoliyat va shaxs haqidagi konsepsiyasida esa motiv, maqsad va shart-sharoit o'rtasidagi ierarxik munosabat tashabbusning shaxs uchun qanday shaxsiy ma'noga ega ekanligini aniqlovchi asosiy mezon sifatida qaraladi.

K. K. Platonov tomonidan ishlab chiqilgan shaxs strukturasi konsepsiyasida shaxsning yo'nalganligi, tajribasi, psixik jarayonlari va biopsixik xususiyatlari o'rtasidagi ierarxik bog'liqlik tashabbuskorlikning ko'p qatlamli psixologik tabiatini tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Ushbu modelga ko'ra, tashabbuskorlik faqat bitta qatlamga - masalan, temperamentga yoki faqat ijtimoiy yo'nalganlikka - bog'lab qo'yilishi mumkin emas, balki barcha to'rt qatlamning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

B. G. Ananyning insonni individ, shaxs, faoliyat subyekti va individuallik yaxlitligida o'rganish g'oyasi ham tashabbuskorlikni kompleks tadqiq etish zaruratini metodologik jihatdan asoslaydi.

V. D. Shadrikov faoliyat psixologiyasi nazariyasida faoliyatning motivatsion-maqsadli, operatsion-ijrochilik va nazorat-baholovchi bosqichlari orqali tashabbuskorlikning shakllanish mexanizmini bosqichma-bosqich izohlash mumkinligi asoslab berilgan. Muallifning kasbiy muhim sifatlar tizimi haqidagi qarashlari boshqaruv qarorlarining sifati nafaqat bilim hajmiga, balki refleksiv fikrlash, hissiy barqarorlik va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Bu qarash kasaba uyushmasi xodimi faoliyatiga bevosita taalluqlidir, chunki uning kundalik ish jarayoni ko'pincha noaniq, hissiy jihatdan tarang va manfaatlar to'qnashuvi mavjud vaziyatlarda kechadi.

Dispozitsion va xarakterologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tashabbuskorlik va yetakchilik shaxsning barqaror xususiyatlari - mustaqillik, qat'iyatlilik, javobgarlik, ijtimoiy jasorat va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-4631281?ONDATE=14.08.2024%2000>



bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Biroq ushbu yondashuvning metodologik cheklovi shundaki, u tashabbuskorlik va yetakchilikni asosan barqaror xarakterologik xususiyat sifatida talqin qiladi, holbuki zamonaviy tadqiqotlar bu sifatlarning kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanuvchi, o'zgaruvchan dinamik konstruktlar ekanligini ko'rsatadi. Ushbu cheklov, xususan, yetakchilik nazariyasi tarixida "buyuk shaxs" konsepsiyasidan xulq-atvorga, keyinchalik esa situativ va transformatsion modellarga o'tish jarayonida yaqqol namoyon bo'lgan.

Xorijiy psixologik tadqiqotlar tahlili tashabbuskorlik va yetakchilikning shakllanishini faqat shaxsning barqaror individual sifatleri bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. M. Frese va D. Fay tomonidan ishlab chiqilgan "shaxsiy tashabbus" (personal initiative) konsepsiyasida tashabbuskor xulq-atvor uchta asosiy belgi bilan tavsiflanadi: o'z-o'zidan boshlanuvchanlik (self-starting), proaktivlik, ya'ni kelajakka yo'naltirilganlik (proactive) hamda qiyinchiliklarga qaramay qat'iyat bilan harakat qilish (persistent). Mualliflarning fikricha, shaxsiy tashabbus rasmiy ish tavsifi doirasidan chiqadigan, tashkilot maqsadlariga muvofiq va uzoq muddatli natijaga yo'naltirilgan xulq-atvordir. Ushbu ta'rif kasaba uyushmasi xodimining faoliyatiga o'ta mos keladi, zero uning eng samarali harakatlari ko'pincha lavozim yo'riqnomasida qayd etilmagan bo'ladi.

J. B. Rotter tomonidan ishlab chiqilgan "nazorat lokusi" nazariyasi ichki nazorat lokusiga ega shaxslarning tashqi nazorat lokusiga ega shaxslarga nisbatan ancha yuqori tashabbuskorlik darajasini namoyon etishini asoslab beradi.

A. Bandura tomonidan asoslangan o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi esa shaxsning muayyan vazifani bajara olishiga bo'lgan ishonchi tashabbus ko'rsatish ehtimolini bevosita belgilashini ko'rsatadi: past o'z-o'ziga ishonch bilim va ko'nikma yetarli bo'lgan holatda ham faollikni cheklaydi.

D. C. McClelland tomonidan ishlab chiqilgan yutuqqa erishish motivatsiyasi nazariyasi tashabbuskorlikning motivatsion asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi: yuqori yutuqqa erishish ehtiyojiga ega shaxslar o'rtacha qiyinlikdagi, biroq real vazifalarni tanlashga, o'z faoliyati natijalari haqida tezkor qayta aloqa olishga hamda shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga moyil bo'ladi. Muallifning hokimiyat motivatsiyasi haqidagi qarashlari esa yetakchilik salohiyatini tushuntirishda alohida qiymatga ega: ijtimoiy yo'nalgan hokimiyat motivi shaxsni guruh manfaati uchun ta'sir ko'rsatishga, shaxsiy yo'nalgan hokimiyat motivi esa maqom va nazoratni kengaytirishga undaydi.

E. A. Locke va G. Latham tomonidan asoslangan maqsad qo'yish nazariyasi aniq va murakkab maqsadlarning umumiy, noaniq maqsadlarga nisbatan yuqori faoliyat natijalariga olib kelishini ko'rsatadi.

A. M. Grant va S. J. Ashford tomonidan taklif qilingan proaktivlik konsepsiyasida esa proaktiv xulq-atvor jarayon sifatida - oldindan ko'rish, rejalashtirish va o'zgarishga yo'naltirilgan harakat bosqichlari birligida - talqin qilinadi.

Konformlik masalasida S. E. Aschning klassik eksperimentlari guruh bosimining individual mulohazani o'zgartirishdagi kuchini ko'rsatgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar konformlikni faqat salbiy hodisa emas, balki guruh yaxlitligini ta'minlovchi funksional mexanizm sifatida ham talqin qilish zarurligini asoslagan.

MDH mamlakatlari psixologiyasida tashabbuskorlik muammosi I. A. Krupnov, A. Y. Polskaya, A. S. Jarikova, V. V. Alekseeva, E. I. Karamova, E. L. Nikitina, S. V. Teterskiy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

I. A. Krupnovning tizimli-funksional yondashuvi mazkur yo'nalishdagi eng yaxlit nazariy modellardan biri hisoblanadi: unda tashabbuskorlik shaxsning motivatsion-mazmuniy va instrumental-dinamik xususiyatlarini birlashtiruvchi yaxlit tizimli sifat sifatida talqin etiladi. Ushbu modelning metodologik afzalligi shundaki, u tashabbuskorlikni yagona umumlashgan ko'rsatkichga emas, balki o'zaro bog'liq komponentlar tizimiga ajratadi va shu orqali shaxsning tashabbus profili haqida differensial ma'lumot olish imkonini beradi.

Mahalliy psixolog olimlarning (E. G'. G'oziyev, V. M. Karimova, G'. B. Shoumarov, O. E. Hayitov, D. G. Muxamedova, I. I. Maxmudov, M. G. Davletshin, Z. A. Abidova va boshqalar) ilmiy izlanishlarini umumlashtirish natijasida shaxs faolligi, kasbiy motivatsiya, rahbarlik faoliyati, boshqaruv professionalizmi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yetakchilik va tashabbuskorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar ekanligi aniqlangan.

Xususan, G'. B. Shoumarov rahbarning psixologik tayyorgarligida mas'uliyat, tashabbuskorlik va kommunikativ kompetentlik asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi; V. M. Karimova esa rahbarlik samaradorligini shaxsning moslashuvchanligi, ijtimoiy intellekti va jamoa bilan konstruktiv munosabat o'rnatish qobiliyati bilan bog'laydi. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda tashabbuskorlik va yetakchilikning o'zaro munosabati hamda ularni birgalikda belgilovchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni kompleks o'rganishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada nazariy tahlil, tahlil-sintez, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent-tahlil va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbai sifatida klassik faoliyat psixologiyasi vakillarining, xorijiy tashabbuskorlik va yetakchilik nazariyotchilarining, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tanlab olindi.



Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar qo'llanildi:

- (a) tashabbuskorlik yoki yetakchilik konstruktini bevosita ta'riflashi va operatsionallashtirishi;
- (b) empirik tekshiruvdan o'tgan model yoki metodikaga ega bo'lishi;
- (v) tashkiliy yoki mehnat konteksti bilan bog'liqligi.

Tanlangan manbalar uch mezon bo'yicha - konstruktning ta'rifi, uning determinantlari va operatsionallashtirish usuli bo'yicha - qiyosiy tarzda umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari umumlashtirilib, tashabbuskorlik va yetakchilikni tushuntiruvchi asosiy nazariy oqimlarning metodologik imkoniyatlari va cheklolari 1-jadvalda taqdim etildi.

1-jadval: Tashabbuskorlik va yetakchilikni tushuntiruvchi nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

| Yondashuv                                                                      | Konstruktning talqini                                              | Metodologik imkoniyati                                      | Cheklovi                                                             |
|--------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| <b>Faoliyat nazariyasi (Rubinshteyn, Leontev, Platonov, Shadrikov)</b>         | Faoliyat subyekting ongli, maqsadga yo'naltirilgan faolligi shakli | Tashabbusning ichki tuzilishi va bosqichlarini ochib beradi | Individual tafovutlarni o'lchash vositasi yetarli ishlab chiqilmagan |
| <b>Dispozitsion-xarakterologik yondashuv</b>                                   | Shaxsning barqaror xususiyati (sifat)                              | Bashoratlash imkoniyati yuqori, diagnostikaga qulay         | Rivojlanuvchanlik va situativlik hisobga olinmaydi                   |
| <b>Motivatsion-kognitiv konsepsiyalar (McClelland, Rotter, Locke, Bandura)</b> | Motiv, kutish va o'z-o'ziga ishonch mahsuli                        | Tashabbusni rivojlantirish mexanizmlarini ko'rsatadi        | Ijtimoiy-guruhiy kontekst yetarlicha qamrab olinmagan                |
| <b>Proaktiv xulq-atvor konsepsiyalari (Frese, Fay, Grant, Ashford)</b>         | Rasmiy talab doirasidan chiquvchi, kelajakka yo'nalgan xulq-atvor  | Tashkiliy kontekstga bevosita tatbiq etiladi                | Madaniy va institutsional o'ziga xoslik kam hisobga olinadi          |
| <b>Tizimli-funksional yondashuv (Krupnov)</b>                                  | Motivatsion-mazmuniy va instrumental-dinamik jihatlar birligi      | Komponentli diagnostika va differensial profil imkoniyati   | Komponentlararo sabab-oqibat aloqalari to'liq ochilmagan             |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, birorta ham yondashuv tashabbuskorlikni yakka holda to'liq izohlay olmaydi. Faoliyat nazariyasi tashabbuskorlikning shaxs faolligi bilan bog'liqligini umumfalsafiy va umumpsixologik darajada asoslasi, dispozitsion yondashuv uning barqaror shaxsiy zaminini, motivatsion-kognitiv hamda proaktivlik konsepsiyalari esa uning situativ va rivojlanuvchi tabiatini ochib beradi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi tashabbuskorlikni bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham rivojlanuvchan psixologik konstrukt sifatida talqin qilish imkonini beradi, bu esa kasaba uyushmalari kabi institutsional kontekstda uning namoyon bo'lish xususiyatlarini to'liqroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida tashabbuskorlik va yetakchilikning o'zaro yaqin, biroq mazmunan bir xil bo'lmagan psixologik hodisalar ekanligi asoslab berildi. Tashabbuskorlik shaxsning mavjud vaziyat doirasidan chiqib, yangi g'oya va harakatlarni mustaqil ravishda ilgari surishi, faoliyatni boshlashi hamda natija uchun mas'uliyatni qabul qilishi bilan tavsiflansa, yetakchilik shaxsning guruh a'zolariga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishi, ularni umumiy maqsad atrofida birlashtirishi va jamoaviy faoliyatni yo'naltira olishi orqali namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, tashabbuskorlik harakatning boshlanish nuqtasiga, yetakchilik esa uning ijtimoiy tarqalish mexanizmiga taalluqlidir.

Shu bilan birga, tashabbuskorlik yetakchilik salohiyatining namoyon bo'lishini ta'minlovchi muhim psixologik shartlardan biri sifatida belgilandi: tashabbusiz yetakchilik formal, tashkiliy mavqega asoslangan boshqaruvga aylanib qolishi, tashabbus esa jamoaviy qo'llab-quvvatlanmasa, individual va izolyatsiyalangan harakatga aylanib qolishi mumkin. Ushbu qarama-qarshilik kasaba uyushmasi faoliyatida ayniqsa yaqqol ko'rinadi: bitta xodimning tashabbusi jamoaga yetkazilmasa va uni birlashtira olmasa, u real o'zgarishga aylanmaydi.

I. A. Krupnovning tizimli-funksional modeli asosida tashabbuskorlikning sakkiz komponentli tuzilmasi kasaba uyushmasi xodimi faoliyati kontekstida operatsionallashtirildi (2-jadval). Ushbu operatsionallashtirish keyingi empirik bosqichda diagnostik natijalarni kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog'lab talqin qilish imkonini beradi.



2-jadval: Tashabbuskorlik komponentlarining kasaba uyushmasi xodimi faoliyatidagi mazmuniy ifodasi

| Komponent          | Psixologik mazmuni                                   | Kasbiy faoliyatdagi ko'rinishi                                     |
|--------------------|------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| <b>Maqsadli</b>    | Aniq maqsad qo'yish va ustuvorliklarni ajratish      | Himoya strategiyasini belgilash, muzokara maqsadini shakllantirish |
| <b>Motivatsion</b> | Tashabbusga undovchi ichki va tashqi turtkilar       | Jamoa manfaatini himoya qilishga bo'lgan ichki intilish            |
| <b>Kognitiv</b>    | Vaziyatni anglash, tahlil qilish, mazmunini baholash | Mehnat qonunchiligini qo'llash, nizo sabablarini tahlil qilish     |
| <b>Produktiv</b>   | Tashabbusning real natijaga aylanishi                | Jamoa shartnomasiga kiritilgan aniq takliflar                      |
| <b>Dinamik</b>     | Faollikning kuchi, izchilligi va davomiyligi         | Uzoq muzokaralarda qat'iyatni saqlash                              |
| <b>Emotsional</b>  | Tashabbus bilan bog'liq hissiy kechinmalar           | Tarang vaziyatlarda hissiy barqarorlik                             |
| <b>Regulyator</b>  | O'z-o'zini boshqarish va nazorat                     | Qabul qilingan qarorlarga izchil rioya etish                       |
| <b>Refleksiv</b>   | O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash            | Amalga oshirilgan tadbir natijalarini tanqidiy ko'rib chiqish      |

Tahlil davomida tashabbuskorlik va yetakchilikning kasaba uyushmalari faoliyati kontekstidagi o'ziga xosligi alohida ta'kidlandi. An'anaviy tashkilotlarda tashabbuskorlik ko'pincha individual yutuqqa yo'nalgan bo'lsa, kasaba uyushmalari xodimida u jamoaviy manfaatni ifodalash va himoya qilish vazifasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu farq tashabbuskorlikning "nima uchun" va "kim uchun" amalga oshirilishi jihatidan tubdan boshqacha motivatsion asosga ega ekanligini ko'rsatadi va boshqa kasbiy guruhlarda olingan natijalarni mexanik ravishda kasaba uyushmalariga ko'chirish noto'g'ri bo'lishini asoslaydi.

Nazariy tahlil natijalari asosida "konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik" uch a'zoli modeli taklif etildi. Ushbu modelning mohiyati quyidagicha: kasaba uyushmasi xodimi kasbiy faoliyatida bir vaqtning o'zida ikki qutbli talabga duch keladi. Bir tomondan, u tashkilotning ichki tartib-qoidalari, guruhiiy me'yorlari va boshqaruv strukturasi moslashishi zarur - bu muayyan darajadagi konformlikni taqozo etadi. Ikkinchi tomondan, u mehnat jamoasi manfaatlarini himoya qilish, muammolarni ko'tarib chiqish va zarur hollarda rahbariyat pozitsiyasidan farqli nuqtayi nazarni ilgari surishga tayyor bo'lishi kerak - bu esa tashabbuskorlik va mustaqillikni talab etadi. Yetakchilik esa ushbu ikki qutb o'rtasidagi muvozanatni boshqara olish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Taklif etilayotgan modelning metodologik ahamiyati shundaki, u konformlik va tashabbuskorlikni bir-birini istisno etuvchi qutblar sifatida emas, balki muayyan optimal nisbatga ega bo'lgan ikki funksional resurs sifatida qarashga imkon beradi. Nazariy jihatdan, konformlikning haddan tashqari pastligi xodimni jamoadan ajratib qo'yishi va uning tashabbuslarini institutsional qo'llab-quvvatlashdan mahrum etishi mumkin; haddan tashqari yuqoriligi esa mustaqil pozitsiyani yo'qotishga va adolatsizlikka qarshi ovoz ko'tarmaslikka olib keladi. Aynan shu sababli kasaba uyushmasi xodimining psixologik portreti "o'rtacha konformlik - yuqori tashabbuskorlik" konfiguratsiyasi bilan tavsiflanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Klassik, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida tashabbuskorlik va yetakchilik masalalari psixologiya fanida keng o'rganilganiga qaramay, kasaba uyushmalari xodimlarida ushbu ikki xususiyatning birgalikda namoyon bo'lishi, ularning o'zaro bog'liqligi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar maxsus tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada o'rganilmaganligi aniqlandi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati rahbar kadrlar, ta'lim tashkilotlari rahbarlari, pedagoglar va tadbirkorlik subyektlari misolida amalga oshirilgan.

Bu holatning uchta asosiy sababi mavjud deb hisoblaymiz. Birinchidan, kasaba uyushmalari ko'pincha huquqiy va iqtisodiy tadqiqotlar obyekti sifatida qaralib, psixologik tahlil predmeti sifatida kam tanlangan. Ikkinchidan, mazkur kasbiy guruh faoliyatining ikki tomonlama tabiati - bir vaqtning o'zida tashkilot ichida ishlash va tashkilot rahbariyatiga nisbatan mustaqil pozitsiya egallash - an'anaviy tashkiliy psixologiya model-lariga to'liq mos kelmaydi. Uchinchidan, xorijiy tadqiqotlar natijalarini bevosita ko'chirish mumkin emas, chunki kasaba uyushmalari harakatining institutsional roli, a'zolik darajasi va jamoa shartnomalari bilan qamrov ko'rsatkichlari mamlakatlar bo'yicha keskin farqlanadi.

Aniqlangan bo'shliq empirik tadqiqot uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi: tashabbuskorlik komponentlarining ijtimoiy-demografik omillar (jins, yosh, oilaviy holat, ish staji, hudud) kesimidagi differensiat-siyasini aniqlash; tashabbuskorlik, konformlik, tashkilotchilik-kommunikativ qobiliyatlar va boshqaruv qaror-larini qabul qilish uslublari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni o'rganish; hamda olingan qonuniyatlar asosida rivojlantiruvchi modelni ishlab chiqish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-metodologik tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

*Birinchidan*, tashabbuskorlik va yetakchilik shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy jihatlar bilan o'zaro bog'liq holda shakllanadigan, biroq mazmunan farqlanadigan ikki psixologik fenomendir: tashabbuskorlik harakatning boshlanishiga, yetakchilik esa uning ijtimoiy tarqalishiga taalluqlidir.

*Ikkinchidan*, ularning shakllanishida nafaqat individual, balki ijtimoiy-muhit va institutsional omillar ham hal qiluvchi rol o'ynaydi; shu sababli tashabbuskorlikni faqat shaxsiy sifat sifatida diagnostika qilish yetarli emas.

*Uchinchidan*, kasaba uyushmalari xodimlarining o'ziga xos kasbiy faoliyati bir vaqtning o'zida tashkiliy me'yorlarga moslashish (konformlik) va mustaqil tashabbus ko'rsatish (avtonomiya) talabini yuzaga keltirishi ushbu kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilikni maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

*To'rtinchidan*, tashabbuskorlik va yetakchilikni faqat barqaror shaxsiy xususiyat sifatida emas, balki tashkiliy muhit, kasbiy tajriba va ijtimoiy kontekst bilan uzluksiz o'zaro ta'sirda rivojlanuvchi dinamik konstrukt sifatida talqin qilish zarurligi asoslandi; bu yondashuv mazkur sifatlarni faqat baholash emas, balki maqsadli ravishda rivojlantirish mumkinligini nazariy jihatdan ta'minlaydi.

*Beshinchidan*, kasaba uyushmalari xodimida tashabbuskorlikning jamoaviy manfaatni ifodalash vazifasi bilan bog'liq o'ziga xos motivatsion asosi uni boshqa kasbiy guruhlarda o'rganilgan tashabbuskorlik model-laridan farqlaydi, shu sababli olingan xorijiy va umumiy nazariy natijalarni kasaba uyushmalari kontekstiga mexanik ravishda ko'chirib bo'lmaydi.

*Oltinchidan*, taklif etilgan "konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik" modeli va tashabbuskorlikning sakkiz komponentli operatsional tavsifi keyingi empirik bosqich uchun diagnostik apparatni tanlash va natijalarni talqin qilish mezonlarini belgilash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda O'RQ-588-son "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Rubinshteyn S.L. Основы общечеловеческой психологии. - СПб.: Питер, 2002. - 720 s.
4. Леонтев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1975. - 304 s.
5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1968. - 339 s.
6. Платонов К.К. Структура и развитие личности. - М.: Наука, 1986. - 255 s.
7. Шадриков В.Д. Психология деятельности человека. - М.: Институт психологии РАН, 2013. - 464 s.
8. Крупнов И.А. Психологические проблемы исследования активности человека // Вопросы психологии. - 1984. - №3. - С. 25-33.
9. Frese M., Fay D. Personal initiative: An active performance concept for work in the 21st century // Research in Organizational Behavior. - 2001. - Vol. 23. - P. 133-187.
10. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs. - 1966. - Vol. 80(1). - P. 1-28.
11. McClelland D.C. Human Motivation. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 663 p.
12. Locke E.A., Latham G.P. A theory of goal setting and task performance. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1990. - 413 p.
13. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. - New York: W.H. Freeman, 1997. - 604 p.
14. Grant A.M., Ashford S.J. The dynamics of proactivity at work // Research in Organizational Behavior. - 2008. - Vol. 28. - P. 3-34.
15. Asch S.E. Studies of independence and conformity: A minority of one against a unanimous majority // Psychological Monographs. - 1956. - Vol. 70(9). - P. 1-70.
16. Gordon M.E., Philpot J.W., Burt R.E., Thompson C.A., Spiller W.E. Commitment to the union: development of a measure and an examination of its correlates // Journal of Applied Psychology. - 1980. - Vol. 65, №4. - P. 479-499.
17. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2002. - 256 b.
18. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - Toshkent: Universitet, 1999. - 96 b.
19. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008. - 296 b.
20. Sharipov H.S. Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlari namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari: PhD dissertatsiyasi. - Toshkent, 2026. - 140 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.